

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA - QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.26/26.01.2023.T.109.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI MILLIY
TADQIQOTLAR UNIVERSITETINING
QARSHI IRRIGATSIYA VA AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

QURBONOV AZAMAT ILXOM O‘G‘LI

**“YIRIK SUG‘ORISH NASOS STANSIYALARI BOSIMLI QUVURLARI
EKSPLUATATSION SAMARADORLIGINI OSHIRISH”**

05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

SAMARQAND – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Qurbonov Azamat Ilxom o‘g‘li

Yirik sug‘orish nasos stansiyalari bosimli quvurlari ekspluatatsion samaradorli-
gini oshirish

5

Қурбонов Азамат Илхом угли

Повышение эксплуатационной эффективности напорных трубопроводов
крупных оросительных насосных станций

21

Kurbonov Azamat Ilkhom ugli

Improving the operational efficiency of pressure pipelines of large irrigation
pumping stations

41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works

45

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA - QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.26/26.01.2023.T.109.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI MILLIY
TADQIQOTLAR UNIVERSITETINING
QARSHI IRRIGATSIYA VA AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

QURBONOV AZAMAT ILXOM O‘G‘LI

**“YIRIK SUG‘ORISH NASOS STANSIYALARI BOSIMLI QUVURLARI
EKSPLUATATSION SAMARADORLIGINI OSHIRISH”**

05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

SAMARQAND – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi B2024.3.PhD/T4779 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari insti Milliy tadqiqot universitetining, Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, itgliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdaqu.uz) ba "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Norqulov Behzod Eshmirzayevich
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Eshev Sobir Samadovich
texnika fanlari doktori, professor

Suyunov Javlon Sheraliyevich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori,

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat arxitektura-qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD. 26/26.01.2023.T. 109.03 raqamli ilmiy kengashning 2025 y. «_____» _____ soat _____ dagi majlisda bo'lib o'tadi. (Manzil: 140147, Samarqand shahri.shahri, Lolazor ko'chasi, 70-uy. Tel.: (99866) 2371593, faks: (99866) 23726630, e-mail: tuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan "Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti" Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:140147, Samarqand shahri, Lolazor ko'chasi, 70-uy. Tel.: (99866) 237-15-93, faks: (99866) 23726630.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

D.R.Bazarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

B.M.Norqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, PhD, dotsent

J.Akilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, f.m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda suv xo‘jaligi ob‘ektlarida yirik nasos stansiyalari ni asosiy va yordamchi jihozlardan foydalanish samaradorligini oshirish ahamiyati uzluksiz ortib bormoqda. Iqtisodiyotning ushbu tarmoqlarida nasos stansiyalarining asosiy va yordamchi gidromexanik va elektromexanik qurilmalari ishlashining uzluksizligi, tejamkorligi va yuqori energiya samaradorligini ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Nasos stansiyalarida suv sarfini o‘lchash usullari va elektron vositalarining holatini analitik tahlil qilish, bosimli quvurlar energiyasidan foydalanib nasos stansiya binolaridagi ortiqcha suvlarni chiqarib tashlash, ekspluatatsion samaradorligini oshirish, ularning ishonchli va kafolatli ishlashini ta‘minlash, nasos stansiyalar ishiga salbiy ta‘sir etuvchi omillarni bartaraf etish, energiya va resurslar tejamkorligiga erishish, suv yetkazib berish, texnologik jarayonini boshqarishning zamonaviy usullaridan foydalanish, ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Jahonning yetakchi ilmiy muassasalarida yirik nasos stansiyalari ish rejimlarini optimallashtirish, yirik sug‘orish nasos stansiyalari bosimli quvurlari ekspluatatsion samaradorligini oshirish, suv haydash inshootlarida suv oqimining gidravlik tuzilmasini takomillashtirish va suv isrofini oldini olish, energiya iste‘molini minimallashtirish, yangi texnik yechimlar va texnologiyalarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada yirik nasos stansiyalar inshootlarida suv oqimining optimal gidravlik tuzilmasini tadqiq qilish, nasos stansiyalari bosimli quvurlarida suv oqimini boshqarish usullarini ishlab chiqish, nasos stansiyadagi ko‘tariladigan suyuqlikning sarf va oqim qiymatlarini o‘zgartirish orqali oqimchali nasoslarni qo‘llash va nasos stansiyasining ish samaradorligini oshirishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish, nasos agregatlarining ish rejimlarini optimallashtirish, boshqarish va ekspluatatsion samaradorligini oshirish hamda ilmiy asoslashga e‘tibor berilmoqda.

Hozirgi kunda Respublikamizda suv xo‘jaligi tizimidagi nasos stansiyalarni modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish, inshootlar va jihozlarning ekspluatatsion samaradorligini oshirish, ularda eskirgan jihozlarni zamonaviy, energiya tejamkor jihozlarga almashtirish, nasos stansiyalari inshootlarida suv oqimining gidravlik tuzilmasini boshqarish orqali uning ekspluatatsion rejimini takomillashtirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va muayyan natijalarga erishildi. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «...energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga resurstejamkor texnologiyalarni keng joriy etish»¹ muammolari alohida ta‘kidlab o‘tilgan. Mazkur vazifani amalga oshirishda, jumladan sug‘orish tizimi nasos stansiyalarining xavfsiz va ishonchli ishlashini ta‘minlash, ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni va 2017-yil 25-sentabrdagi PQ-3286-son “Suv ob‘ektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, 2010-yil 15-dekabrda PQ-916-son «Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son hamda “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmonlari hamda mazkur faoliyatiga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining III. «Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik» hamda V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi” ustivor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi vaqtda yirik nasos stansiyalarda, shuningdek gidroakkumulyativ gidroelektrostansiyalarning energiya gidravlik parametrlarining energiya rejimlarini iqtisodiy tartibga solish, suv o‘lchash qurilmalari va usullarini yaratish bo‘yicha nazariy va amaliy muammolarini o‘rganish masalalari bir qator olimlarning ishlari bag‘ishlangan jumladan Don J. Wood (University of Kentucky), Geraint Jewell (University of Sheffield), Hans-Georg Herzog (Technische Universität München), K.T.Chau (University of Hong Kong), M.G.Tyagunov, V.A.Xoxlov, B.S.Leznov (Rossiya), K.R.Allaev, M.M.Muxammadiev, K.S.Djuraev (Toshkent davlat texnika universiteti), T.S.Kamalov, O.X.Ishnazarov (Energetika muammolari instituti, O‘zbekiston). Oqimli nasos va gidroelektr stansiyalarining ish rejimlarini maqbullashtirish va tartibga solishni o‘rganishga A.V.Xoxlov va V.A.Xoxlov va boshqalar shug‘ullanishgan.

Irrigatsiya nasos stansiyalari inshootlarida yangi konstruksiyalar va texnologiyalarning nasos stansiyasi samaradorligiga ta’siri, shuningdek suv oqimidagi loyqa zarrachalarining harakati, ularning inshoot tubiga cho‘kishining oldini olish jarayonlari mamlakatimiz olimlari O.Ya. Glovaskiy, M. Mamajonov, D.R. Bazarov, M.M. Muxammadiev, A.M. Arifjanov, B.U. Urishev, B.M. Shakirov, B.R. Uralov, B.E. Norkulov va boshqalarning ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Bugungi kunda o‘z resurslarini to‘liq o‘tab bo‘lgan va bir necha marta ta’mirlangan hamda og‘ir sharoitda ishlayotgan nasos stansiyasi ekspluatatsion rejimini hisoblash, sug‘orish tizimi nasos stansiyalarining ishlash sharoitlaridan kelib chiqib, tarkibidagi gidromexanik jihozlarning ishonchlilik ko‘rsatkichlarini o‘zgarish qonuniyatlarini aniqlash, oqiziqnlarni suv uzatish tizimi nasos qurilmalariga ta’siri, oqiziqnlarni tozalab olib tashlash texnologiyalari va texnikalarini takomillashtirish, tozalash qurilmasining parametrlarini asoslash bo‘yicha bajarilgan ilmiy ishlarda, oqiziqnlarning tarkibi, o‘lchamlari hamda oqib

kelish davrini inobatga olish, avankameradagi suv sathining me'yorda bo'lishini ta'minlash masalalari hozirgi vaqtgacha yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining Qarshi kanalidan foydalanish boshqarmasida №25/2021-sonli xo'jalik shartnomasi, "Qarshi magistral kanali 1-sonli nasos stansiyasiga suv keltirish sohasidagi o'zandagi jarayonlarini baholash hamda zemsnaryadlar va nasos stansiyasi agregatlarini ishlatish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq qilish" mavzusidagi 26/2021-sonli xo'jalik shartnomasi va loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: yirik sug'orish nasos stansiyalari bosimli quvurlari tizimi ekspluatatsion samaradorligini oshirish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

asosiy va yordamchi energiya qurilmalarining eskirishini hisobga olgan holda, nasos stansiyalarining ekspluatatsiya rejimlari va energiya iste'molini zamonaviy xolatini tahlil qilish;

nasos stansiyalarda suv sarfi va oqimini o'lchash usullari va elektron vositalarini afzalliklarini aniqlash va ishlab chiqish;

suv chiqarish inshootlaridagi suv sathlari inobatga olib nasos stansiyalarda innovatsion bosimli suv olish qurilmalari imkoniyatini asoslash;

ishlab chiqilgan hisoblash usullarining muvofiqligini tekshirish uchun ishlab chiqilgan qurilmalarning ish rejimlarining dala sinovlarini o'tkazish, dala tajribalari natijalarini hisob-kitoblar natijalari bilan solishtirish.

Tadqiqot ob'ekti: sifatida Qarshi magistral kanalidagi nasos stansiyalari olingan.

Tadqiqot predmeti: Qarshi magistral suv uzatish quvurlari, nasos stansiyasi suv chiqarish inshootlari, suv oqimining loyqaligi, gidrodinamikaning asosiy tenglamalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari: tadqiqot jarayonida dala kuzatuv usullari, gidrologiya va gidravlikada qo'llaniladigan umum qabul qilingan usullar, gidromexanika qonunlari asosida matematik modellar tuzish va ularni sonli hisoblash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kaskad nasos stansiyalari ish rejimlarini yaxshilash usuli oraliq kanallardagi suv sathlarini o'zgarish dinamikasini inobatga olib ishlab chiqilgan;

nasos stansiyalari binolari mustahkamligi ta'minlashda drenaj nasoslar samaradorligi oshirish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

yirik sug'orish nasos stansiyalari avankamerasi va binolarida loyqa suvlarni tozalashda quvurlardagi suv oqimini hisoblash dasturi asosida suvni yetkazib berishni hisobga olish usuli ishlab chiqilgan;

sugʻorish nasos stansiyalarida oqimchali nasos qurilmasini konstruktiv elementlari, yuqori b'efdagi suv sathi va bosimli quvur naporini inobatga olib takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

nasos stansiyalari ish rejimlarini inobatga olib bosimli quvurlardan chiqqan suvlarni olish texnologiyasini ishlab chiqilgan;

nasos stansiyalari drenaj nasoslar samaradorligi oshirish texnologiyasini ishlab chiqish asosida bosimli quvurlar energiyasidan foydalanish usuli ishlab chiqilgan;

sugʻorish nasos stansiyalarida oqimchali nasos qurilmasini konstruksion elementlari, suv olish quvurining diametri va suv uzatishning geometrik balandliklarini inobatga olib eksperimental asoslangan;

sugʻorish nasos stansiyalarida oqimchali nasos qurilmasida gidravlik yoʻqotishlar suv olish qudugʻidagi suv sathini inobatga olib aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarning ishonchliligi umum qabul qilingan usullarning qoʻllanilishi, tadqiqotlarni tabiiy sharoitlarda oʻtkazilishi, tadqiqot natijalarini eksperimental va amalda oʻtkazilgan natijalari asosida taqqoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati foydalanilgan tadqiqot natijalari nasos stansiyalaridagi drenaj qurilmalarining ishonchli ishlashini taʼminlashi, shuningdek, suv va energetika resurslaridan oqilona foydalanish, nasos stansiyasi binolaridagi filtratsion suvlarni chiqarish tizimidagi oqimning xarakatini matematik modeli ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati nasos stansiyalaridagi asosiy va yordamchi energetika qurilmalarini himoya qilish va tejamkor ekspluatatsiya qilish uskunalarni ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

➤ Nasos stansiyalari ish rejimlarini yaxshilash uchun bosimli quvurlardan chiqqan suvlarni isrofini oldini olish texnologiyasi Suv xoʻjaligi vazirligi tasarrufidagi Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan (Suv xoʻjaligi vazirligining 2024-yil 21-avgustdagi 05/27-3067-sonli maʼlumotnomasi). Natijada nasos stansiyasida suv isrofi va bino inshootlarga filtratsion suvlarning taʼsiri oldi olingan.

➤ Nasos stansiyalari binolari mustahkamligi taʼminlashda drenaj nasoslar samaradorligi oshirish texnologiyasi Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan (Suv xoʻjaligi vazirligining 2024-yil 21-avgustdagi 05/27-3067-sonli maʼlumotnomasi). Natijada drenaj nasos agregatlari tizimini xavfsiz ishlashi va elektr energiyasini tejash imkoniyati yaratilgan.

➤ Yirik nasos stansiyasida suvni yetkazib berishni xisobga olish usuli Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan (Suv xoʻjaligi vazirligining 2024-yil 21-avgustdagi 05/27-3067-sonli maʼlumotnomasi). Natijada nasos agregatlarini va bosimli quvur ekspulatsion

rejimini baxolash imkoniyati yaratilgan.

➤ Nasos stansiyasi yuqori b'efdagi suv sathi va bosimli quvur naporini inobatga olib sug'orish nasos stansiyalarida konstruktiv elementlari takomillashtirilgan oqimchali nasos qurilmasi Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan (Suv xo'jaligi vazirligining 2024-yil 21-avgustdagi 05/27-3067-sonli ma'lumotnomasi). Natijada nasos stansiyalaridagi drenaj qurilmalarining ishonchli ishlashini ta'minlash, shuningdek, suv va energetika resurslaridan oqilona foydalanish, nasos stansiyasi binolaridagi filtratsion suvlarni chiqarish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta ilmiy-texnik, shu jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazildi va ma'qullandi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 1 ta Scopus bazasida ro'yxatdan o'tgan xorijiy jurnalda nashr etilgan, 1ta EHM dasturiga guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 115 betni tashkil etdi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, hamda ob'yekti va predmetlari shakllantirib, O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ko'rsatilgan tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalar bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan natijalar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Yirik sug'orish nasos stansiyalari ekspluatatsiyasini yaxshilashda gidravlik tadqiqotlar tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida O'zbekiston iqtisodiyotining qishloq xo'jaligi va energetika tarmoqlarida nasos stansiyalarining ahamiyati, nasos stansiyalari ekspluatatsion rejimiga ta'sirini baholash bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlarning analitik tahlili, katta diametrli quvurlar bilan jihozlangan nasos stansiyalarida suyuqlik sarfi va oqimini o'lchash usullari va vositalari, nasos stansiyalarining yordamchi drenaj tizimlari rejimlari va loyqa suvlarni tozalashning ilmiy tahlili bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek nasos stansiyalarida suv oqimi va suv sarfini o'lchash usullari va elektron vositalarining afzalliklari, kamchiliklari va xususiyatlari, shuningdek, ularning dasturiy, matematik va metrologik ta'minoti, xamda energiya yo'qotishlarining o'tkazilayotgan suyuqlik tarkibi va bosimli quvur tarmog'ining diametri kabi parametrlarga bog'liqligini aniqlash vazifalari belgilab olingan.

Tahlillar asosida ta'kidlash mumkinki hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari ichida suv xo'jaligi tarmog'i o'ziga xos o'rin va mavqega ega. Shu sababli tarmoqda mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot va xizmatlar tannarxini kamaytirish mavjud texnika va texnologiyalarni doimiy ravishda yangilab borish, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish orqali innovatsion ishlanmalarni joriy etish ishlariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Suv va yoqilg'i-energetika resurslariga jiddiy munosabatda bo'lish sharoitida mavjud nasos stansiyalarida sug'orish suvi va elektr energiyasi iste'molinini tejash mexanizmini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, bugungi kunda suv xo'jaligida bir qancha muammolar uchraydiki, ularni bartaraf etish uchun ham tarmoqda investitsion faollikni oshirish zarur bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab nasos stansiyalarida nasoslarning suv uzatilishini nazorat qilish uchun suv o'lchash uskunalarining yo'qligi sababli loyihaviy kattaliklardan foydalaniladi, bu esa sezilarli xatolarga olib keladi. NSda suvni hisobga olmaslik va buning natijasida uni yetkazib berish va suv iste'molining nomuvofiqligi agregatlarning tez-tez ishga tushishi va to'xtashiga va natijada ularning elementlarining muddatidan oldin eskirishiga, shuningdek, elektr energiyasining ortiqcha sarflanishiga va suvni oqizishga sezilarli darajada isrof bo'lishiga olib keladi. Qattiq muallaq zarrachalar konsentratsiyasi va dispersligi o'zgarishining tabiatini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar natijalari shuni ko'rsatdiki, oqiziqslarning eng katta o'rtacha oylik konsentratsiyasi $2,5..3,8 \text{ kg/m}^3$ ni tashkil qiladi, ba'zan esa yomg'irli ob-havoda suvning maksimal loyqaligi 7 kg/m^3 ga yetadi.

Qattiq mexanik aralashmalar tarkibida donadorligi 0,1-0,05 mm bo'lgan zarrachalar katta miqdorda uchraydi. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, avankamera va suv qabul qilish kamerasida oqimning kichik tezligida o'lchami 0,01 mm dan katta bo'lgan zarrachalar ularga osongina cho'kadi. Turli stansiyalarda loyqa bosish hajmi 20 dan 60% gacha tashkil etdi. Buning natijasida gidravlik qarshilik ortdi, bu esa nasoslarning suv uzatishini kamayishiga olib keladi.

O'zbekistondagi irrigatsiya nasos stansiyalari bosimli quvurlarning katta diametrlari bilan ajralib turadi. Masalan, Qarshi kaskadlari, Mirzacho'l, Amu-Buxoro nasos stansiyalarining quvurlari diametri 3,6 - 4,2 m tashkil qiladi. Respublika bo'yicha quvurlarning diametri o'rtacha 1,4 m oshadi. Bunday katta quvur diametrlari uchun nasos orqali ko'tariladigan suv oqimi va sarfini o'lchash maqsadida ishonchli usullar va qurilmalar hanuzgacha ishlab chiqilmagan. Bugungi kunga qadar hech bir yirik nasos stansiyasida nasos orqali ko'tariladigan suvni bevosita elektron hisobga olish tizimi deyarli mavjud emas. Suv sarfini hisoblash, nasoslar va elektr dvigatellarining eskirishi quvur tarmoqlari va suv o'tkazuvchi inshootlar va boshqalarning korroziyasi va eroziyasi natijasida ko'p yillar davomida uzoq vaqt ekspluatatsiya qilinishi davomida loyiha parametrlariga mos kelmaydigan nasoslarning pasport tavsiflariga ko'ra bilvosita usullar bilan amalga oshiriladi.

Quvur tarmog'i kesimining bir nuqtasida suv harakati tezligini o'lchashga asoslangan suv sarfini aniqlash va suv uzatishni hisobga olish usuli ishlab chiqildi,

bunda mahalliy tezlik ushbu kesimdagi o'rtacha tezlikka tengligi tajribalar yordamida asoslandi.

Nasos agregatining suv berish unumdorligini gidrooqimchali nasosni qo'llagan holda oshirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari tahlili bu usul parametrlarning ba'zi bir chegaralangan qiymatlari doirasida eng samarali usullardan biri ekanligini ko'rsatdi. Lekin nasos agregati bilan oqimchali nasosning birgalikdagi ishidan nisbatan past sathlarda joylashgan maydonlarga suv yetkazib berish bo'yicha tadqiqotlar yetarli darajada o'tkazilmagan.

Dissertatsiyaning **“Yirik nasos stansiyalari kaskadlarida haydalayotgan suvning sarfi va oqimini o'lchashning hozirgi holati”** deb nomlangan **ikkinchi bobida**, tadqiqot obyektining joylashuvi, fizik-geografik va iqlim sharoitlari, Qarshi magistral kanali nasos stansiyalari kaskadi va qurilmalaridan foydalanish muammolari, nasos stansiyalarining ekspluatatsion rejimi, nasos stansiyalari ishini boshqarishda ta'sir etuvchi omillar xaqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek bobda nasos stansiyalari favqulodda vaziyatlar gidromexanik uskunalarning ishdan chiqishi, biror stansiyaning o'chib qolishi - himoya tizimining ishga tushishi natijasida yuzaga kelgan muammolar kaskaddagi biror stansiyada agregat to'satdan to'xtab qolgan taqdirda zaxira agregati ishga tushirilishi vaziyatni bartaraf etish choralari nasos stansiyalari orasidagi kanallardagi suv sathini o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishiga doir tadqiqotlar olib borilgan.

QMK nasos stansiyalarining umumiy o'rnatilgan quvvati 580 ming kVt dan ortiq bo'lib, shundan 77,5 foizi asosiy nasos-quvvat qurilmalariga to'g'ri keladi.

QMK nasos stansiyalarining yillik ko'tariladigan suv hajmi taxminan 4,5 milliard m³ ni tashkil qiladi. Kaskad bo'yicha elektr energiya iste'moli yiliga 2,2 milliard kVt/soatni tashkil qiladi. Suvni ko'tarish va 1 m³ sug'orish suvini yetkazib berish uchun energiya sarfining o'rtacha qiymati 0,088 kVt/m³ ni tashkil qiladi. Kaskadning 6 ta nasos stansiyasi bo'yicha bitta nasos agregatining yillik ish vaqti 5000 dan 6000 soatgacha, NS-7 uchun esa 2000 dan 3000 soatgacha tashkil qiladi.


Tadqiqotlar taxlili shuni ko'rsatadiki nasos-quvvat uskunalari nafaqat o'z resursini oqlagan, balki ko'tarilayotgan Amudaryo suvining xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik jihatdan uzoq xizmat muddati bilan ishlab chiqarilgan.

Birinchidan, nasos agregatlari uzoq vaqt ekspluatatsiya qilingani uchun sezilarli darajada eskirgan. Xavfsizlik maqsadida barcha agregatlar aylanadigan parraklardan qattiq parrakliga o'tkazildi, ya'ni barcha parraklar nasos g'ildiragiga payvandlangan. Natijada, kaskad ishini boshqarishda manevr butunlay buzildi. Nasos stansiyalar va ular orasidagi oraliq kanallarining ish rejimlarini sinxronlashtirish ilojisi yo'q. Rejimlarni sinxronlashtirish uchun agregatlarni doimiy ravishda yoqish va o'chirish vaziyatni yanada og'irlashtirdi, chunki har bir ishga tushirish va ishdan to'xtash gidravlik zarba bilan bog'liq va agregatlarning ham, bosim quvurlarining ham ishonchliligini sezilarli darajada kamaytiradi.


Ikkinchidan, bosimli quvurlar abraziv eskirishi tufayli ingichkalashgan va qisman foydalanish uchun yaroqsiz bo'lib qoldi.

Uchinchidan, Qarshi kaskadining suv olish stvorida Amudaryo daryosida rejalashtirilgan to‘g‘on qurilishi amalga oshirilmaganligi sababli, butun foydalanish yillarida suv omboridan tiniqlashtirilmagan suv Qarshi magistral kanaliga, daryodan esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri cho‘kindi va suzuvchi chiqindili suv oqib kelgan. Natijada, katta kuch sarflab birinchi nasos stansiyasiga yetkazib beruvchi kanalni tozalash kerak bo‘ladi.

Nasos stansiyalari kaskadlarida ekspluatatsion sharoitining tajribasi shuni ko‘rsatdiki, nasos agregatlarining normal, turg‘un ishlashini ta‘minlash uchun avankameralardagi suvning optimal gorizontlarini saqlab turish, ularning ma‘lum vaqt davomida tebranishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim bo‘ladi. Avankamerada suv gorizontining iloji boricha ko‘tarilishi agregatlarning ishini yaxshilabgina qolmay, balki nasos stansiyalarining suv berishini barqarorlashtiradi. Ularning ish samaradorligini oshirishda birinchi bo‘lib bosh nasos stansiyadagi nasoslarni foydalanish bo‘yicha tavsiyalarni inobatga olib, avankameralarda suvning yuqori gorizontlarini saqlab turadigan kanallar rejimlarini ishlab chiqish kerak bo‘ladi (1-rasm).




1-rasm. 1-NS pastki b'efida va Amudaryoning kunlik suv sathlarini o'zgarishi. 2021 yil




2-rasm. Nasos stansiyalari avankamerasidagi dimlanish sathi

Tadqiqotlar natijalari ko‘ra nasos stansiyalari oldidagi dimlanish sathini rejimini darhol qabul qilish imkoniyati mavjud emasligi ko‘rsatadi. Beton qoplamali oraliq kanallarning ishlatilishi va ishonchliligi bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilganidan so‘ng, hamda eng yuqori suv sathidan berma balandligi 1,5-2 m bo‘lgan holda qabul qilininishi mumkin (2-rasm).



3- rasm. Qarshi magistral kanalidagi nasos stansiyalarning YuB va PB suv sathlari, suv ko'tarish bosimlari kunlik o'zgarishi dinamikasi



Foydalanishga eng maqbul sath ko'rsatkichlarini quyidagicha qabul qilish mumkin: 2-4-nasoslar stansiyasida 8,0-9,5 m; 3-nasos stansiyasida 8,25-9 m; 5-nasos stansiyasida 8,0-8,5 m; 6-nasos stansiyasida 8,0-9,5 m (3-rasm).

Qarshi magistral kanali kaskadining kerakli dimlanish sath rejimda ishlashi ekspluatatsion sharoitini sezilarli darajada yaxshilaydi, shuningdek ish rejimi ishonchliligini oshiradi va nasos agregatlarining suv uzatishini barqarorlashtiradi. Bundan tashqari, avankameradagi suv sathini 0,5-1,0 m oralig'ida saqlab turish nasos agregatlarining barqaror ishlashini ta'minlash va sifonli suv chiqargichlarda vakuumni yo'qotish uchun gidravlik qurilmalardan eng samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

Nasos stansiya ekspluatatsion NS-2 va NS-3 nasos stansiyalari tomonidan oraliq kanallar 8,5 m suv sathi otmetkasigacha to'ldirilishi uchun nasos 30 m³/s suv sarfida 60 min vaqt talab etadi. 3 va 4-nasos stansiyalari orasidagi kanalni bitta agregat bilan to'ldirish, 4-nasos stansiyasining avankamerasida 8,5 m gacha, taxminan 12 soat, 4- va 5-nasos stansiyalari orasida, shuningdek bitta agregat bilan to'ldirish - 4 soat, 5- va 6-nasos stansiyalari orasida esa 6,5 soatni tashkil etadi.


NSda suvni hisobga olmaslik va buning natijasida uni yetkazib berish va suv iste'molining nomuvofiqligi agregatlarning tez-tez ishga tushishi va to'xtashiga va natijada ularning elementlarining muddatidan oldin eskirishiga, shuningdek, elektr energiyasining ortiqcha sarflanishiga va suvni oqizishga sezilarli darajada isrof bo'lishiga olib keladi.

Dissertatsiyaning «**Katta diametrli quvur tarmoqlariga ega ob'ektlarda suv sarfi va oqimini o'lchash natijalari**» deb nomlangan **uchinchi bobida**, katta diametrli quvur tarmoqlarida ultratovushli sarf o'lchagichlarning ahamiyati, katta diametrli quvurda suyuqlikning oqimi va sarfi kattaligiga chiqish tokli signalini o'tkazish jarayonlarining ortogonal markaziy kompozitsion rejasini qo'llashda dala tadqiqot natijalari keltirilgan.

QMK foydalanish boshqarmasining nasos stansiyalari 3620 mm diametrli 38 ta bosimli quvur tarmoqlari va 1220 dan 2040 mm gacha diametrli 25 ta bosimli quvur tarmoqlari bilan jihozlangan. Nasos stansiyalarining energiya samaradorligining eng muhim ko'rsatkichi bu elektroenergiya sarfining solishtirma me'yorini hisoblanadi. Turli xil nasoslar va nasos stansiyalari ma'lum bir suv sarfini (masalan, 1000 m³) yetkazib berishda turli xil miqdorda elektr energiyasini iste'mol qiladilar. Bu nasos va elektr dvigatelining markasi va ularning xizmat qilish muddati, geometrik bosim, quvur diametri va uning xizmat qilish muddati, bosimli quvurning bir ipida parallel yoki ketma-ket ishlaydigan nasoslar soni, nasos orqali yetkazib berilayotgan suv tarkibi va boshqa kabi omillarga bog'liq hisobalanadi.

Quvur tarmog'i kesimining bir nuqtasida suv harakati tezligini o'lchashga asoslangan suv sarfini aniqlash va suv uzatishni hisobga olish usuli ishlab chiqildi. Ushbu o'lchash usuli silindrsimon truba kesimida bir nuqtadagi tezlikni o'lchash usuli orqali suyuqlikning hajmiy suv sarfini aniqlash imkoniyatini yaratdi (4-rasm). Oqim tezligini o'lchash uchun birlamchi o'zgartirgichning konstruksiyasi - quvur tarmog'ining ichki devoridan 0,242 m ga teng bo'lgan o'rtacha tezlik nuqtasiga o'rnatilgan bosim quvurcha ishlab chiqildi. Birlamchi o'zgartirgichning

konstruksiyasi quvur tarmog'ining diametriga, mahalliy oqim tezligi qiymatiga, o'lchov diapazoniga, ortiqcha bosimga va o'lchanayotgan muhitning xususiyatlariga bog'liq ravishda tanlangan (5-rasm).



4-rasm. Katta diametrli quvur tarmoqlariga ega nasos stansiyalari uchun yig'ma sarf o'lchagichlar sxemasi.

1 – katta diametrli quvur tarmoqlari, 2 – sarf o'lchagichning dastlabki o'zgartirgichi, 3 – gidravlik signal, 4 – gidrodinamik bosimlar farqini unifikatsiyalangan tok signaliga o'zgartiruvchi differensial vosita, 5 – elektr signal, 6 – mikroelektron oqim o'lchovchi jihoz, 7 – kompyuter.



5-rasm. Oqimli chiqish signaliga ega magnitli oqimlar kompensatsiyali kichik gabaritli o'lchov o'zgartirgichi.

Avtomatlashtirilgan tizim va suyuqlik sarfini o'lchash asboblarining ishchi chizmalari va ishchi hujjatlari ishlab chiqildi. Stansiya quvur tarmoqlari uchun gidromexanik birlamchi o'zgartirgichlar tayyorlandi, raqamli va oqimli chiqish signaliga ega bo'lgan magnit oqim kompensatsiyasiga ega differensial bosim datchiklari tanlandi. Mahalliy tezlikni o'lchash xatoligi bosimli quvurchaning darajalash koeffitsiyenti xatoligiga va ikkilamchi uskunaning aniqlik sinfiga bog'liq.

$\sigma_{h.m.} = \pm 1 \%$ xatolikga ega bosimli quvurchani darajalash koeffitsiyenti.

Ikkilamchi uskuna sifatida magnit oqimini kompensatsiyalashga ega kichik gabaritli o'lchov o'zgartirgichi difmanometrdan foydalaniladi, bunda aniqlik sinfi - 1,0 va qayd etish moslamasi, aniqlik sinfi - 1,5. Shunday qilib, tezlikni o'lchashning o'rtacha kvadrat og'masi quyidagi formula bilan aniqlandi:

$$\frac{\sigma_V}{V} = \frac{1}{2} \sqrt{\sigma_{h.m.}^2 + \sigma_{d.m.}^2 + \sigma_{p.n.}^2} \quad (1)$$

Qiymatlarni o‘rnilariga qo‘yib quyidagi qiymat olindi:

$$\frac{\sigma_V}{V} = \frac{1}{2} \sqrt{0,01^2 + 0,01^2 + 0,015^2} = 0,01$$

Diametri 1400 mm va undan katta bo‘lgan quvurlar uchun ovallik miqdori 10 mm. Birlamchi o‘zgartirgichni o‘rnatish uchun qurilma ± 2 mm dan katta bo‘lmagan xatolik bilan o‘rnatish imkonini berdi. Birlamchi o‘zgartirgichni o‘rnatish xatoligi quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$2\sigma_y = \frac{1}{2} \sigma_{o.m.} + \sigma_{n.n.} \quad (2)$$

bu yerda: σ_y - birlamchi o‘zgartirgichni o‘rnatish xatoligi; $\sigma_{n.n.}$ - birlamchi o‘zgartirgichni o‘rnatishda paydo bo‘ladigan xatolik. 0,95 ishonchli ehtimollik bilan sarf va oqimni o‘lchash xatoligining ruxsat etilgan chegarasi 2,2 % ni tashkil qildi.

Yirik sug‘orish nasos stansiyalari avankamerasi va binolarida loyqa suvlarni tozalashda va quvurlardagi suv oqimini hisoblash uchun dasturi ishlab chiqildi (DGU 44591). Hisoblashlar natijalariga ko‘ra ishlab chiqilgan usulda mahalliy tezlik ushbu kesimdagi o‘rtacha tezlikka tengligi asoslandi. Shuningdek o‘lchovlarda bu usulning farqi shundaki nasos stansiyalardagi yuqori quvvatli, yuqori voltli asosiy uskunalarning ishlashi unga salbiy ta‘sir ko‘rsatmadi.

Dissertatsiyaning **“Yirik sug‘orish nasos stansiyalari bosimli kuvurlari ekspluatatsion samaradorligini oshirish”** deb nomlangan **to‘rtinchi bobida** Qarshi nasos stansiyalari kaskadida turli muhitda ishlaydigan oqimli nasoslarni qo‘llashning avzalliklari, nasos stansiyalari ish rejimini inobatga olib bosimli kuvurlari ekspluatatsion samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek Qarshi nasos stansiyalari kaskadida oqimli nasoslarni qo‘llashning texnik-iqtisodiy jihatlari bo‘yicha hisoblash natijalari keltirib o‘tilgan.

Qarshi magistral kanalini ekspluatatsiya qilish boshqarmasining zemsaryadlari tomonidan har yili Amudaryo va Qarshi magistral kanalining bosh qismidan 7,8-12 mln. m³ hajmdagi loyqa cho‘kindi chiqarib tashlanadi. Shuningdek O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining qariyb 5-8 %ni iste‘mol qiladigan energiya iste‘molchi hisoblanadi.

Yuqoridagi xulosalarni inobatga olib sifonli so‘ruvchi quvurlarga ega nasos stansiyalari ekspluatatsiyasida asosiy muammolardan energiya tejamkor usullarni qo‘llash hisobalanadi. Masalan nasos stansiyalari quvurlarida sifonlarni zaryad qilishdir asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Aslida, bu suv paydo bo‘lgunga qadar quvurlardan havoni chiqarib tashlashdir, bu esa maxsus import qilinadigan uskunalarni talab qiladi. Deyarli har doim bosimli suv o‘tkazgichining suyuqlik ustuni manbalari mavjud bo‘lgan nasos va gidroelektrostansiyalarida oqimli nasoslar orqali bu vazifani oson bajarishi mumkin.


Hozirgi kunda QMK nasos stansiyalari kaskadida bosimli quvurlar joylashgan nasos stansiya hududida to‘planadigan suv nasos stansiya qurimlariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, bu yerda atmosfera yog‘inlari suvlari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan filtrlanadigan yer osti suvlari ham to‘planadi (6-rasm). Hudud botqoqlashib, ta’mirlash ishlarini bajarish uchun sharoit murakkablashadi, chunki ta’mirlash texnikasi yaqinlasha olmaydi. Bundan tashqari, stansiya hududidan suv stansiya binosining devorlari orqali o‘tib, binoning ichiga, so‘ngra drenaj qudug‘iga tushadi. Shu bilan birga, ushbu suvni drenaj qudug‘idan chiqarib tashlash uchun uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri stansiya binosiga tutash hududdan tortib olishga qaraganda ko‘proq energiya sarflanadi.




6-rasm. Bosimli quvurlar joylashgan nasos stansiya hududida to‘planadigan suv va ularni nasos stansiya qurimlariga ta’siri

Ko‘rsatilgan kamchilikni bir vaqtning o‘zida filtratsiya, drenaj va oqova suvlarni tutash hududdan va nasos stansiyasi binosidan chiqarib tashlash tizimi orqali bartaraf etish mumkin.

Tavsiya etilayotgan oqimli nasoslarning mavjud turlari o‘rtasidagi asosiy farq shundaki, ishchi va so‘ruvchi o‘qlari turli agregat holatlardagi muhit hisoblanadi. Shunday qilib, cho‘ktirilgan cho‘kindilarni chiqarishda suv ishchi o‘q, qattiq pulpa (loyqa oqiziqalar) esa so‘ruvchi o‘q hisoblanadi (7-rasm).



7-rasm. Nasos stansiyasi bosimli quvuridan foydalanib loyqa suvlarni chiqarib tashlashning gidravlik sxemasi.



8-rasm. O‘z-o‘zidan boshqariladigan ignali oqimchali nasos: 1 - soplo; 2 - harakatlanuvchi o‘q; 3 - porshen; 4 - prujina; 5 - bosim quvuri; 6 - so‘rish quvuri; 7 - igna; 8 - aralastirgich kamera.

O‘zini o‘zi rostlaydigan oqimchali nasosning boshqa konstruksiyasi rostlovchi igna bilan bajarilgan bo‘lib, bu igna itargich bilan qo‘zg‘aluvchan o‘qqa ulangan bo‘lib, bu o‘qqa prujinalangan porshen o‘rnatilgan. Nasosni prujinalangan porshen bilan bajarilishi ishchi suyuqlikning bosimiga qarab soplning kesimini avtomatik ravishda o‘zgartirish imkonini beradi (8-rasm).

Nasos stansiyasi binosidan filtratsiya, drenaj va oqova suvlarni bir vaqtda chiqarib tashlash tizimi quyidagilardan iborat: stansiyaning bosimli quvuri, tutash hududdagi drenaj qudug‘i, stansiya binosidagi drenaj qudug‘i. Unda so‘ruvchi quvur, olib keluvchi bosimli quvur va unga o‘rnatilgan zadviyka bilan jihozlangan oqimchali nasos o‘rnatilgan (9, 10 rasmlar).



9-rasm. KMK 4-nasos stansiyasida oqimli nasosni o‘rnatish



10-rasm. KMK 3-nasos stansiyasida oqimli nasosni o‘rnatish

Suyuqlik qattiq jism muhitida ishlovchi oqimli nasoslarning barqaror rejimini matematik modellashtirishda bog‘lanmagan cho‘kindilar uchun oqimli nasoslarning barqaror va beqaror ish jarayonlarini quyidagi tenglamalar tizimi bilan tavsiflash mumkin:

$$\frac{\partial q}{\partial t} + \frac{\partial V \cdot q}{\partial x} + qH \frac{\partial Z_{e.yu.s}}{\partial x} = qHI - \frac{\partial V^2}{2}; \quad (3)$$

$$\frac{\partial q}{\partial x} + \frac{\partial Z_{e.yu.s}}{\partial t} = 0 \quad (4)$$

$$n \frac{\partial Z_{ub}}{\partial t} + \frac{\partial S_{ub}}{\partial x} + \frac{\partial SH}{\partial t} = 0 \quad (5)$$

$$\frac{\partial SH}{\partial t} + \frac{\partial S_{ub}}{\partial x} = K(S_n - S) \quad (6)$$


bu yerda: q – solishtirma sarf, V – tezlik, H – chuqurlik, $Z_{e.yu.s}$ – erkin yuza sathi, S, S_n – mos ravishda oqim loyiqaliligi i- loyiqqa to‘yinishi, n – tubining zichligi, K – empirik koeffitsient, x – bo‘ylama koordinata, t – vaqt

QMK № 3 va № 4 nasos stansiyasi uchun oqimli nasosga ega tizimning gidravlik hisobiga ko‘ra QMK № 3 va № 4 nasos stansiyasi ko‘milgan oqimli nasosga ega tizim orqali oqova suvlarni chiqarishda tizim suvni $H = 4,0$ m

balandlikka ko‘tarishi kerak, diametri 150 mm va uzunligi taxminan 60 m bo‘lgan quvurda gidravlik yo‘qolish 2,5 m ga teng bo‘ladi. Oqimli nasosning ortirilgan bosimi $H_N = 6,5$. Stansiyaning bosimli quvur tarmoqlari tomonidagi hududning dok qismidagi chuqurchaning chuqurligi va shunga mos ravishda so‘rish balandligi $H_V = -1,0$ m. Shunday qilib, oqimli nasosning umumiy bosimi $H_N = 6,5 + 1,0 = 7,5$ m ni tashkil qiladi.

Hisob-kitoblardan kelib chiqib, hududning dok qismida, KMK № 3 va № 4 nasos stansiyasining bosimli quvur tarmoqlari tomondan $Q_V = 15$ l/s so‘riladigan sarfga ega oqimli nasosga ega bittadan tizim o‘rnatilgan. Suvni chiqarib tashlash chuqurchadan taxminan 60 m masofada joylashgan avariya tez oqim mavjud bo‘lganda amalga oshiriladi.

Turli muhitlarda ishlovchi namunaviy oqimli nasosning barqaror va beqaror rejimlari QMK № 3 va № 4 nasos stansiyasidagi turli muhitlarda ishlaydigan oqimli nasoslarning ishlash qobiliyatini tasdiqlash va hisobiy bog‘liqliklarni tajriba natijalari bilan solishtirish maqsadida dala tajribalari o‘tkazildi.



11-rasm. QMK № 3 va № 4 nasos stansiyalari uchun hisobiy va eksperimental bog‘liqliklarni taqqoslash

Oqimli nasoslarni sinovdan o‘tkazish natijasida olingan cho‘kindi olib tashlashning nisbiy sarfini K suyuqlik loyqaligiga S logarifmik bog‘liqligi, nazariy va eksperimental qiymatlar o‘rtasidagi maksimal tafovutlar 6% dan oshmadi, bu esa ishlab chiqilgan nazariy tadqiqotlarning to‘g‘riligini (adekvatligini) tasdiqlaydi (11-rasm). Tajribalarni olib borishda oqimli nasosga uzatiladigan ishchi suyuqlikning sarfi, nasosdan chiqishda suyuqlikning sarfi va oqimli nasosning ishchi va ortirma oqimlarning manometr ko‘rsatkichlari olindi.

Qarshi magistral kanali (QMK) ning 3 va 4-sonli nasos stansiyalaridan qattiq cho‘kindilarni tozalash uchun oqimli nasosga ega tizimni ishlab chiqish va joriy qilishdan olinadigan haqiqiy yillik iqtisodiy samarani hisoblash yangi texnika va ixtirolarni xalq xo‘jaligida qo‘llashning iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodikasiga muvofiq amalga oshirildi (1-jadval).

$$E = K_1 - K_2 = [(E_1 - E_2) - Ye \cdot (Ka_2 - Ka_1)] =$$

$$= [(86454.0 - 0) - 0.15 \cdot (90200.0 - 33200.0 \cdot 4)] = 92844.0 \text{ ming so'm yil}$$

1-jadval.

Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	ko'rsatgichi
1.	Kutilayotgan yillik iqtisodiy samaradorlik	mln. so'm	92,8
2.	Elektroenergiyani iqtisod qilish hajmi	ming kVt.s/yil	189,2
3.	Qoplash muddati	yil	0,97

XULOSA

Qarshi magistral kanali nasos stansiyasida o'tkazilgan dala tadqiqotlari natijalariga asoslanib, quvurlarning ekspluatatsion samaradorligini oshirish asosida quyidagi xulosalar tavsiya etildi:

— nasos stansiyalarida nasos agregatlarining suv uzatilishini nazorat qilish uchun suv o'lchash uskunalarning yo'qligi sababli loyihaviy kattaliklardan foydalaniladi, bu esa sezilarli xatolarga olib kelmoqda. NSda suvni hisobga olmaslik va buning natijasida uni yetkazib berish va suv iste'molining nomuvofiqligi agregatlarning tez-tez ishga tushishi va to'xtashiga va natijada ularning elementlarining muddatidan oldin eskirishiga, shuningdek, elektr energiyasining ortiqcha sarflanishiga va suvni oqizishga sezilarli darajada isrof bo'lishiga olib kelmoqda. Innovatsion texnologiyalarni energiya tejamkor uskunalarni qo'llash asosida quvurlar ekspluatatsion samaradorligi yaxshilash imkoniyati yaratildi.

— kaskad nasos stansiyalari ish rejimlarini yaxshilash usuli oraliq kanallardagi suv sathlarini o'zgarish dinamikasini inobatga olib ishlab chiqilgan. Natijada nasos stansiyalari yuqori va pastki b'eflarida suv sathini boshqarish, favqulodda vaziyatlarda gidromexanik uskunalarning ishdan chiqishi, nasos agregatlarini o'chib qolishi odini olish imkoniyati yaratilgan.

— yirik sug'orish nasos stansiyalari avankamerasi va binolarida loyqa suvlarni tozalashda quvurlardagi suv oqimini hisoblash dasturi ishlab chiqildi. Chegaraviy nominal bosim o'zgarishi $0,16 \text{ kgs/sm}^2$, ishchi ortiqcha bosim 10 yoki 25 kgs/sm^2 , aniqlik sinfi 1 dan katta emas, chiqish raqamli signal deb qabul qilindi.

— QMK № 3 va № 4 NS nasos stansiyasi ko'milgan oqimli nasosga ega tizim orqali oqova suvlarni chiqarishda tizim suvni $H = 4,0 \text{ m}$ balandlikka ko'tarishi kerak, diametri 150 mm va uzunligi taxminan 60 m bo'lgan quvurda gidravlik yo'qolishlar 2,5 m ga teng bo'ladi. Oqimli nasosning ortirilgan bosimi $H_N = 6,5 \text{ m}$. Nasos stansiyasining bosimli quvur tarmoqlari tomonidagi hududning tubqismidagi chuqurchaning chuqurligi va shunga mos ravishda so'rish balandligi $H_{so'r} = -1,0 \text{ m}$. Oqimchali nasosning umumiy bosimi $H_N = 6,5 + 1,0 = 7,5 \text{ m}$ ni tashkil qildi.

— doimiy ishchi bosim bilan tajribalar statsionar ishchi bosimda ishlaydigan oqimchali nasos tizimining tabiiy tavsiflarini qurishga imkoniyat yaratdi. Butun kuzatuv davrida bitta ishchi nasos agregatidan foydalanilganda oqimchali nasos tizimining so‘riluvchi sarfning o‘rtacha arifmetik qiymati $Q_v = 15,2$ l/s ni tashkil etdi.

— KMKning 3 va 4-sonli nasos stansiyalarida o‘rnatilgan oqimchali nasoslarni sinovdan o‘tkazish natijasida zovur, oqova suv va loyqa suvlarni bir vaqtda olib tashlash tizimini sinovdan o‘tkazish usuli ishlab chiqildi. Qo‘llanilayotgan o‘lchash vositalari va usullari yordamida 3,5% dan oshmaydigan xatolik bilan bosimni o‘lchash, oqimchali nasosning uzatilishi va ishchi suyuqlikning sarfi 3% dan katta bo‘lmagan xatolik bilan hisoblash imkoniyati yaratilgan.

— yirik sug‘orish nasos stansiyalarida oqimchali nasos qurilmasini konstruktiv elementlari, yuqori b‘efdagi suv sathi va bosimli quvur naporini inobatga olib takomillashtirilgan.

— ilmiy ish natijalari qator nasos va gidroelektr stansiyalar ekspluatatsiyasi amaliyotiga joriy etildi. Bajarilgan majmuaviy eksperimental tadqiqotlar ishlab chiqilgan usullar va matematik modellarning adekvatligini tasdiqladi. Nazariy va eksperimental qiymatlar o‘rtasidagi maksimal tafovut 6% dan oshmadi, bu esa o‘tkazilgan tadqiqotlarning ishonchliligidan dalolat beradi. Dissertatsiya ishi natijalarini joriy qilinishida tasdiqlangan iqtisodiy samaradorlik yiliga qariyb 300 million so‘mni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.26/26.01.2023.Т.109.03 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ГОСУДАРСТВЕННОМ
САМАРКАНДСКОМ АРХИТЕКТУРНО - СТРОИТЕЛЬНОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

**КАРШИНСКИЙ ИНСТИТУТ ИРРИГАЦИИ И
АГРОТЕХНОЛОГИЙ НАЦИОНАЛЬНОГО ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОГО
УНИВЕРСИТЕТА “ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ
ИРРИГАЦИИ И МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА”**

ҚУРБОНОВ АЗАМАТ ИЛХОМ УГЛИ

**"ПОВЫШЕНИЕ ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ
НАПОРНЫХ ТРУБОПРОВОДОВ КРУПНЫХ ОРОСИТЕЛЬНЫХ
НАСОСНЫХ СТАНЦИЙ”**

05.09.07 – Гидравлика и инженерная гидрология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за В2024.3.PhD/T4779

Диссертация выполнена в Каршинском институте ирригации и агротехнологии при Национальном исследовательском университете. "Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства"

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу (www.samdaq.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziynet» по адресу (www.ziynet.uz)

Научный руководитель:

Норкулов Бехзод Эшмирзаевич
доктор технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Эшев Собир Самадович
доктор технических наук, профессор

Суюнов Жавлон Шералиевич
доктор философии по техническим наукам,

Ведущая организация:

Ташкентский государственный архитектурно-строительный университет

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета PhD.26/26.01.2023.Т.109.03 при Самаркандском государственном архитектурно-строительном университете в «___» _____ 2025 года в _____ часов _____ (Адрес: 140147, г. Самарканд, улица Лолазар 70. Тел.: (99866) 2371593, факс: (99866) 23726630 e-mail:tuit@tuit.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного Архитектурно-строительного университета (зарегистрирован под номером № _____). (Адрес: 140147, г. Самарканд, улица Лолазар 70. тел.: (99866) 2371593), факс: (99866) 23726630

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года.
(реестр протокола рассылки №__ в «___» _____ 2025года).

Д.Р.Базаров
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней, д.т.н.
профессор

Б.М Норкулов
Научный секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней, PhD по т.н.,
доцент

Ж.Акилов
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней,
д.ф-м..н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире непрерывно возрастает значение повышения эффективности использования основного и вспомогательного оборудования крупных насосных станций на объектах водного хозяйства. В этих отраслях экономики важно обеспечить непрерывность работы, экономичность и высокую энергоэффективность основного и вспомогательного гидромеханического и электромеханического оборудования насосных станций. Аналитический анализ состояния методов и электронных средств измерения расхода воды на насосных станциях, удаление избыточной воды из зданий насосных станций с использованием энергии напорных трубопроводов, повышение их эксплуатационной эффективности, обеспечение их надежной и гарантированной работы, устранение факторов, негативно влияющих на работу насосных станций, достижение энерго и ресурсосбережения, водоснабжение, использование современных методов управления технологическим процессом являются приоритетными задачами.

В ведущих научных учреждениях мира ведутся научно-исследовательские работы, направленные на оптимизацию режимов работы крупных насосных станций, повышение эксплуатационной эффективности напорных трубопроводов крупных оросительных насосных станций, совершенствование гидравлической структуры потока воды в водонапорных сооружениях и предотвращения потерь воды, минимизации энергопотребления, разработку новых технических решений и технологий. В связи с этим уделяется внимание исследованию оптимальной гидравлической структуры потока воды в сооружениях крупных насосных станций, разработке методов управления потоком воды в напорных трубопроводах насосных станций, разработке современных методов повышения эффективности работы насосных станций и применения струйных насосов путем изменения величин расхода и потока поднимаемой жидкости на насосной станции, оптимизации режимов работы насосных агрегатов, повышению эффективности управления и эксплуатации, а также научному обоснованию.

